

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
*UDK: 631.15:33*

Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK  
JARAYONLARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARINI  
BAHOLASH**

5A230110 - "Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti" mutaxassisligi

Magistr  
akademik darajasini olish uchun yozilgan  
dissertatsiya

**Ilmiy rahbar: dots. Abduramanov X.X.**

**TOSHKENT – 2018**

Dissertatsiyada demografik rivojlanishni tartibga solishning bosqichma bosqichligi asoslangan, demografik rivojlanishni tartibga solish shakllari, vositalari va usullar tasniflangan, O'zbekiston Respublikasida demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish metodikasi tarkibi asoslangan, O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarning tahlili amalga oshirilgan, O'zbekiston Respublikasida davlat dasturlarining demografik rivojlanishga ta'siri ochib berilgan, O'zbekistonda demografik jarayonlar rivojlanishining uzoq muddatga mo'ljallangan proqnozi ishlab chiqilgan.

The dissertation is based on stages of demographic development, classification of demographic development forms, tools and methods, composition of demographic indicators in the Republic of Uzbekistan, analysis of demographic processes in the Republic of Uzbekistan, demographic the long-term outlook for demographic processes in Uzbekistan has been developed.

Magistrlik dissertatsiya ishi "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

5- - sonli bayonnomma «14» mai 2018 y.

Ilmiy rahmat:

Бобурганов Х.Х С  
(ilmiy rahbar i.sh.f.) imzo sana

Taqrizchi:

М.Ирасемов Т.У С.Калбаков  
(taqrizchi i.sh.f.) imzo sana

Magistrant:

Карасагирова Т.А. С.М.Калбаков  
(magistrant i.sh.f.) imzo sana

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING NAZARIY-USLUBIY JIHATLARI.....</b>	<b>8</b>
1.1. Demografik jarayonlarni o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	8
1.2. Demografik jarayonlarni tartibga solish shakllari, usullari va vositalari...	15
1.3. O'zbekiston Respublikasida demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish metodikasi.....	23
<b>I bob bo'yicha xulosalar.....</b>	<b>31</b>
<b>II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK JARAYONLARNING RIVOJLANISH HOLATI VA UNING TAHLILI.....</b>	<b>33</b>
2.1. O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlarning tahlili.....	33
2.2. Aholining takror barpo bo'lishi va uning hududiy tafovutlari.....	41
2.3. Demografik jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solish holatining tahlili.....	53
<b>II bob bo'yicha xulosalar.....</b>	<b>59</b>
<b>III BOB. DEMOGRAFIK JARAYONLARNING RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....</b>	<b>60</b>
3.1. Demografik jarayonlar rivojlanishining istiqbol ko'rsatkichlari.....	60
3.2. Demografik jarayonlarning rivojlanishidagi hududiy tafovutni bartaraf etish yo'llari.....	73
<b>III bob bo'yicha xulosalar.....</b>	<b>80</b>
<b>XULOSA.....</b>	<b>81</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>84</b>

## KIRISH

### **Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.**

Mamlakatimizning o’z oldiga ko’ygan uzoq muddatli strategik maqsadi zamonaviy, rivojlangan demokratik mamlakatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotning barqaror o’sishini ta’minlash, hayot sifatini yaxshilash va jahon hamjamiyatida munosib o’rin egallash ko’p jihatdan demografik rivojlanishni tartibga solish bilan chainbarchas bog’liq. Har qanday davlatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishda demografik jarayonlarning o’rni katta bo’lib, aholi sonining o’sishi, joylashishi, demografik tarkibi, va boshqa ko’pgina muhim jihatlarii ilmiy o’rganish katta ahamiyatga ega. Chunki aholi ham ishlab chiqaruvchi kuch, ham iste’molchi sifatida jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirilgan iqtisodiyotdan farqli o’laroq demografik jarayonlarga yangicha yondashishni taqazo etmoqda. Respublikadagi barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy islohotlar markazida demografik vaziyat turadi. Chunki, O’zbekistonda aholining o’sish sur’atlari yuqori hisoblanadi. So’nggi yillarda aholining tabiiy o’sishi birmuncha kamaygan bo’lishiga qaramay, u hali ham ayrim mamlakatlar orasida eng yuqori darajadadir. O’tgan asrning 70-90 yillarida Respublikada demografik portlash vujudga kelgan edi, respublikadagi oilalarning ko’pchiligidagi farzandlar soni 10 ta va undan ortiqni tashkil etgan, 1991 yilda respublikada oilalar soni 2,5 mln.ni tashkil etgan bo’lsa, hozirgi kunga kelib ular soni 7,5 mln.ga etgan, hozirgi kunda har bir oilaga to’g’ri keladigan farzandlar soni 4,5 tani tashkil etmoqda, lekin respublika aholisi tez sur’atlarda o’sib bormoqda.

Bu kabi ishlar samarasi respublikada demografik rivojlanishning iqtisodiy jihatlarini hal etishga xizmat qiladi. Respublikamizda oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog’lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo’naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish orqali o’sib kelayotgan yosh avlodni o’z